

SINONIMIK PARADIGMANING PRAGMATIK TADQIQI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7819942>

U.E.Rahimov

*Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent, Davlat tilida ish yuritish
asoslarini oqitish va malakasini
oshirish markazi Andijon
hududiy bolim rahbari
usmon-rahim@mail.ru*

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinonimiya hodisasi, sinonimik paradigma leksik-semantik, morfologik-sintaktik, pragmatik tahlil qilingan

Аннотация

В статье анализируются лексико-семантические, морфологические-синтаксические, pragматические особенности синонимические парадигмы.

Annotation

The article analyzes lexico-semantic, morphological-syntactic, pragmatic features of synonymous paradigms.

Tayanch soz va iboralar.

paradigma, sinonimiya, sinonimik paradigma, pragmatik sinonimiya, semasiologiya, onomosiologiya, pragmatika.

Ключевые слова и выражения.

парадигма, синонимия, синонимическая парадигма, pragматическая синонимия, семасиология, ономастика, pragmatika.

Key words and expressions.

paradigm, synonymy, synonymous paradigm, pragmatic synonymy, semasiology, onomatology, pragmatics.

Fanda "paradigma" tushunchasi ilk marta G.Bergman tomonidan metodologiyaning normativligiga nisbatan qollanilgan. Lekin paradigma atamasining keng ishlatalishi amerikalik olim T.Kun nomi bilan bogliq. Olim ushbu terminni birinchi marta 1977 yilda ozining «Ilmiy inqiloblar strukturasi» nomli asarida qollagan: «Jamiyatda inqiloblar tez-tez yuz beradi. Fandagi inqilob obhektga bolgan yondashuvning ozgarishi bilan bogliq boladi. Muayyan fanning

taraqqiyot bosqichida ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan, muammoning qoyilish va hal etilishi uchun model sifatida xizmat qilgan nazariya, qoidalar, metodlar tizimi, yondashuv va ilmiy qarashlar paradigma deb ataladi” [1, 7].

Fan falsafasi tarixida “paradigma” tushunchasiga mos keluvchi bir necha terminlar mavjud bolib, lekin ularning hech biri mazkur tushuncha singari ommalashib ketgan emas. Xususan, “epistema” (M. Fuko), “tafakkur stili” (M.Born), “ilmiy tadqiqot dasturi” (I.Lakatos) kabi tushunchalar “paradigma”ning mohiyatiga yaqin keladi, lekin ular ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilmadi.

Yu.V.Yakovets paradigm deganda, olamning ilmiy manzarasini tasvirlovchi ustuvor qarashlar va nazariyalar tizimini nazarda tutgan. V.S.Stepinning fikricha, paradigmratsionallikning bir korinishi bolib, ideallar, me’yorlar, olam manzarasi, falsafiy talqinlarni oz ichiga oluvchi ilmiy strategiyadir [2, 3]. T.Kiselning fikricha, ilmiy paradigmmani keng va tor ma’noda tushunish mumkin [3, 82]:

- keng ma’noda paradigmalar – tadqiqot texnikasida qollaniladigan qarashlar, mezon va me’yorlar majmui;
- tor ma’noda paradigmalar- aniq masalani yechish na’munalari bolib, ular keyinchalik boshqa muammolarning talqinida ham ishlataladigan tadqiqot na’munalaridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda lingvistik paradigmaga shunday ta’rif berish mumkin: “Lingvistik paradigm tilshunoslik fani amaliyotida hamma tomonidan e’tirof etilgan qoidalar, qarashlar na’munasi bolib, u tadqiqotlar olib borish jarayonida olimlar tayanuvchi modeldir”.

V. fon Gumbol’dtning “antinomiyalari” yoki F.de Sossyurning “til va nutq”, “sinxroniya va diaxroniya” haqidagi qarashlari lingvistik paradigmaga misol bola oladi.

Tilshunoslik istoriografiyasida “paradigma” tushunchasining tatbiq etilishi turlicha. Ayrim tilshunoslardan eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bolgan tilshunoslikdagi qarashlar, goyalarning barchasiga nisbatan “paradigma” tushunchasini qollash mumkin deb hisoblasalar, ba’zi olimlar bunga qarshi chiqadilar. Ikkinchi guruh olimlarning fikricha, tilshunoslik mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan davrdan, ya’ni XIX asrdan boshlab yuzaga kelgan yondashuvlarga nisbatan “paradigma” terminini qo’llash maqsadga muvofiq. Tilshunoslik tarixiga chuqur nazar tashlagan holda 3 asosiy ilmiy paradigmmani ajratib ko’rsatish mumkin:

1. Tilshunoslik fani tarixidagi tom ma'nodagi birinchi paradigm XIX asrda shakllangan qiyoslash va tarixiylikni tadqiqot printsiplari sifatida belgilovchi komparativistik paradigmadir. Bunda tilni tadqiq etishning birinchi metodi tavsiya etilgan bolib, u tillarning qarindoshligi va genetik yaqinligini aniqlashga yonaltirilgan. Butun XIX asr tilshunos olimlari mana shu paradigmaga tayangan holda izlanishlar olib bordilar. Mazkur paradigma 2 kichik-paradigmani oz ichiga oladi: a) A.SHleyxer nomi bilan bogliq bolgan biologik kichik-paradigma (naturalizm); b) G.SHteyntal' nomi bilan bogliq bolgan psixologik kichik-paradigma (psixologizm).

2. Yaxlitlik va sistemaviylikni tadqiqotning muhim printsiplari sifatida belgilovchi sistem-struktur paradigmasi, bunda til sistemachalar - lisoniy sathlar hamda til-nutq birlklari asosida tadqiq etiladi. Ushbu paradigmasing asoschisi F.de Sossyurning fikricha, bunda til "oz ichida va ozi uchun" organiladi, ya'ni til strukturasi va til sistemasi boshqa sistemalardan izolyatsiyalangan holda tadqiq etiladi.

3. Antropotsentrik paradigma (kommunikativ yoki nominativ-pragmatik paradigma) - tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida organuvchi, boshqa sistemalar - jamiyat, inson, madaniyat, inson ruhiyati kabilalar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yonaltirilgan qarashlar, goyalar va ta'limotlar majmuidir. Mazkur paradigm oz ichida turli kichik-paradigmalarga bolinib ketadi: a) kognitiv paradigma; b) etnolingvistik paradigma; v) sotsiolingvistik paradigma; g) psixolingvistik paradigma; d) neyrolingvistik paradigma; e) lingvokul'turologik paradigma, k) pragmalingvistik paradigma. Yuqoridagilardan xulosa shuki, paradigma makrosistema bolib, ozida turli mikrosistemalarni birlashtiradi.

Biz tahlil qilmoqchi bolgan paradigma nominativ-pragmatik paradigmaga kiradi va uni ko'chilik sinonimik paradigma deb ham atashadi.


Sinonimik paradigma tilshunoslikda atroficha organilgan masalalaridan biridir [4,3-6,151-154,222-242]. Lekin tilshunoslismizning hozirgi kungi taraqqiyoti sinonimiya hodisasini nafaqat leksik, grammatik sathda, balki pragmatik jihatdan ham tadqiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, bu hodisani til va nutq bosqichida ozaro aloqadorlikda tadqiq etish uning oziga xos yangi-yangi xususiyatlarini ochib beradi. CHunki sistem leksikologiya va hozirgi semasiologiya hamda onomasiologiya tilshunoslikda mufassal tavsiflangan lugaviy sinonimiya masalasini yangi nuqtai nazardan tadqiq etish muammosini ortaga qoyadi [5].

SHuning uchun bu hodisani til va nutq bosqichida ozaro aloqadorlikda hamda qarama-qarshilikda (oppozitsiyada) tahlil etish zarurati yuzaga keladi[6, 17]. Til bosqichida sinonimiya hodisasi muayyan qolip sifatida mavjud bolib, atash va ifoda ma'nosni bilan umumiylilikni hosil etadi. Masalan: Aft, bashara, doxt, shixt, yuz, oraz, chehra, jamol kabi sinonimlar atash ma'nosni bilan bir sinonimlik qatorni tashkil etadi. Agar biz har bir so'zni muayyan belgilar bilan ifodalasak, u holda quyidagicha holat yuzaga keladi:

A-aft. B-bashara, D-doxt, SH—shixt. Y-yuz, O-oraz, CH-chehra, J-jamol: ularning atash mahnosti-N. A+B+D+SH+Y+O+CH+J =N yoki

Ong

CHap



ong tomondan atash tomon borilsa, semasiologik jihatdan yondoshiladi chap tomondan atash tomon borilsa, onomasiologik jihatdan yondoshiladi [7, 79]. Agar sinonimik qatordagi sozlar S bilan, ularning sonini N bilan belgilansa, u holda $S_{NQ}N$. CHunki sinonimiyaning sharti atash ma'nosni bir xil bolishligidir. So'zlarning soni qancha bolishligidan qathiy nazar barchasi atash ma'nosni bilan umumlashadi. Ushbu model-qolip til bosqichida leksik sinonimiyani aks ettiradi. Agar grammatik sathdagi sinonimiyani aks ettirsa, u holda so'z-S ornida grammatik shaklni $GrSH_N$ deb belgilasak, grammatik shakl yoki so'z shaklining sinonimik sharti ifoda ma'nosni -grammatik ma'nosining bir xilligida bo'ladi. Bunday grammatik sinonimiyani til bosqichida $GrSH_{NQI_{gr.m}}$ qolip-model orqali ifodalashi mumkin. Agar sinonimiya hodisasi sintaktik butunliklar-so'z birikmasi va gap doirasida bolsa ham yuqoridagicha holat takrorlanadi. Faqat sinonimik qator elementi soz birikmasi yoki gap bolib qoladi. Agar biz soz birikmasini SB_N deb belgilasak, y holda bunday sinonimiyaning til bosqichida qolipi $SB_{NQ}N_{sb}$ tarzida ifodalanadi. Agar sinonimik qator elementi gap bolsa, gapni G-deb belgilasak, u holda bunday sinonimiyaning til bosqichidagi modelini $G_{NQ}N$ tarzida ifodalash mumkin. Agar sinonimik qator elementi tekst bolsa, $T_{NQ}N$ tarzidagi model bilan ifodalash mumkin boladi. Yuqoridagi holatlarni umumlashtiradigan bolsak, quyidagicha tarzda korinishga ega boladi:

1. $S_{NQ}N$ -leksik sinonimiya
2. $GrSH_{NQI}$ -morfologik sinonimiya

3. GNqN-sintaktik sinonimiya
4. SBNqN-sintaktik sinonimiya
5. TNqN-matn sinonimiyasi

Biz yuqoridagi sozning, grammatic shaklning, soz birikmasining, gapning, matnning atash va ifoda ma'nolari ozaro teng kelib qolish sharti asosidagi sinonimiya hodisasining til bosqichidagi qoliplarini korib chiqdik.

Korib otilgan qoliplarning nutq bosqichidagi monefestatsiyalarida oziga xos murakkablik yuzaga keladi. Bunday murakkablik, xattoki cheksizlikkacha yetib borishi mumkin. Sinonimiya hodisasi nutq bosqichidagi ifoda va atash mahnosи yoki pragmatik ma'nosining teng kelishi bilan sinonimik qatorni tashkil etadi. pragmatik ma'no bilan sinonimik qatorni tashkil etgan sinonimlar pragmatik sinonimlar deb ataladi [8, 8-10]. Ularning atash ma'nolari ozaro teng kelmasligi nutqiy jarayon bilan bogliq.

Masalan: "aft" sozi leksik jihatdan "yuz" ma'nosini ifodalaydi. Lekin nutqiy vaziyat, ob'ektiv holatga bogliq holda ba'zan ust-bosh ma'nosini ham ifodalaydi. Chunki nutqiy vaziyatda bir bola-tinglovchi ust-boshlarini kir qilgan bolsa, so'zlovchi unga nisbatan "Aftingni qara!" degan gapni ishlatadi. Obhektiv holatdan kelib chiqib, "aft" sozi anglatgan ma'noni har qanday til egasi ust-boshkiyim tarzida tushunadi. Ya'ni, nutqda "aft" sozi oziga xos ma'no ifodalab, "kiyim-bosh" sozi bilan bir uyada birlashadi va sinonimiyani hosil qiladi.

Ba'zan nutqiy vaziyat va kontekst asosida "aft" sozi dunyoqarash, sozlangan nutq, bilim, saviyani ham ifodalab keladi. Sozlovchi tinglovchilar uchun ma'qul kelmaydigan fikrlar, sozlar aytsa, tinglovchi unga nisbatan "Aftini qarang!" gapini ishlatadi. Nutqiy vaziyat va ob'ektiv holatdan biz "aft" sozi orqali insonning yuzini emas, umumiy dunyoqarashini anglaymiz. Bunday holatning yuzaga kelishi nutqiy vaziyat bilan bogliq bolganligi uchun koplab keltirish mumkin. "Aft" sozning muayyan nutqiy vaziyat bilan bogliq holda ifodalagan mahnosи 'ragmatik mahno hisoblanadi [9, 64]. SHuning uchun yuqorida korib otilgandek, "aft" sozining "ust-bosh", "dunyoqarash" sozlari ifodalagan ma'nolar bilan teng kelgan ma'nosи pragmatik jihatdan yuzaga kelganligi bu hodisaning nutq bosqichidagi xususiyliklarini tahlil etishni talab qiladi.

Sinonimiya hodisasini leksik sathdagi xususiyatlarini tort xil yondashuv asosida tahlil etish an'anaga aylangan. Ma'hno tomondan bir xilligi, ozaro paradigmada erkin almashinishi, uslubiy oxshashligi va kontekstual-matniy bogliqlik kabi asoslar orqali leksik sinonimiya tadqiq etiladi[10, 222-223]. Mantiqiy bogliqlik asosida ajratilgan sinonimlar nutqiy jarayonda nutqiy vaziyat bilan bogliq

bolgan ma'nolar oxshashligi orqali belgilanadi. SHuning uchun ularni sinonimlar deb atash mumkin va ularni ba'zi ishlarda denotativ sinonimlar deb ham ataydi hamda lisoniy sinonimiyadan bir munkha cheklanganligi uqtiriladi [10, 224].

Sinonimiya hodisasiga kategoriya sifatida yondashilsa, uning lisoniy, mazmuniy, paragmatik kategoriya ekanligi aniq boladi. Lisoniy kategoriya sifatidagi sinonimiya paragmatik sinonimiya bilan ozaro teng munosabatda turmaydi. Ularni bir uyani hosil qilish asoslari ham turlicha boladi. Leksik sinonimiya lisoniy kategoriya sifatida belgilanib, umumiy atash ma'nosi bilan bir uyani tashkil etadi. pragmatik sinonimiya esa mazmuniy kategoriya bolib, sozlarning nutqiy vaziyatda anglatgan ma'nolari ozaro teng kelib qolishi orqali bir uyani tashkil etadi. Sozlarning nutqiy jarayon bilan bogliq holda anglatgan ma'nolari okkozional ma'no bolib, boshqa nutqiy vaziyatda ushbu ma'no bilan ishtirok etmaydi. Xattoki, atash ma'nosiga o'xshamagan ma'no kasb etishi ham mumkin. Bunday holatning yuzaga kelishiga nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutqdan tashqari ohang, imo-ishora, sozlovchi va tinglovchi ortasidagi shartnomaviy munosabat ta'sir etadi. Masalan: muvozanat sozi-leksik jihatdan jismlarning qarama-qarshi yonalgan teng kuchlar ta'siridagi tinch, turgun holati; qarama-qarshi kuchlarning tenglashuvi, uygunlashuvi tufayli sodir bolgan nisbiy turgunlik, osoyishtalik[11, 475]ni ifodalaydi. Ushbu soz muayyan nutqiy vaziyatda "munosabat" sozi bilan sinonimik uyani tashkil etishi mumkin: Tabiat hodisalari ortasida munosabat-tabiat hodisalari ortasidagi muvozanat.


Ba'zan ozaro bogliqlik asosida sinonimiyanı tashkil etadi. SHuning uchun ularning barchasini bir umumiy nom-pragmatik sinonimiya nomi bilan umumlashtirib, uning ichida turuvchi mikrosistemalarning oziga xos tomonlarini yoki farqlanuvchi xususiyatlarini ochib berish hozirgi kunda dolzarblik kasb etmoqda.

Adabiyotlarda ta'kidlanayotgan kontekstual, denotativ, okkozional, presuppozitsion sinonimlar leksik sinonimlardan farqlanadi. Ular atash mahnolari bilan emas, nutqiy-pragmatik ma'nolari bilan bir uyani tashkil etadi.

| LS | KS | OS | 'S | Farqlanish asoslari |
|----|----|----|----|---|
| + | - | - | - | 1. Atash ma'nosi |
| - | + | + | + | 2. Nutqiy vaziyat bilan bogliq ma'nosi |
| - | - | + | - | 3. Nutqiy vaziyat bilan bogliq ma'no sozning biror bir semasi bilan kelib qolishi |
| + | - | - | - | 4. Denotativ ma'nosining teng kelib qolishi |
| - | - | - | + | 5. presuppozitsion ma'nosining teng kelib qolishi |
| - | + | - | - | 6. Kontekstdagi ma'noning teng kelib qolishi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| - | + | - | - | 7. Uslubiy ma'noning teng kelib qolishi |
|---|---|---|---|---|

Pragmatik sinonimiya makrosistema bolib, leksik sinonimiya bilan ozaro oppozitsiyada turadi va shu ziddiyat asosida belgilanadi. Leksikologik kategoriylar asosida belgilanadigan sinonimlar hosil qilgan mikrosistemalar leksik sinonimiya makrosistemasing elementi boladi. Pragmatik kategoriylar orqali belgilanadigan sinonimlar: okkozional, kontekstual, presuppozitsion sinonimlar mikrosistemasi tashkil etib, pragmatik sinonimiya makrosistemasing elementi boladi.



Sinonimiya makrosistemasi tashkil etuvchi elementlar ortasidagi munosabatlar xilma-xil bolib, ular alohida tadqiqot ko'lamiga ega. SHuning uchun ular haqida toxtalmadik.

Xullas sinonimiya hodisasini onomosiologik tahlili uning oziga xos yangi qirralarini olib beradi. Bu esa sinonimiya hodisasi bilan bogliq bolgan boshqa lisoniy birliklarning ham tadqiqida oziga xos o'rinn tutadi. Ayniqsa, adabiyotshunoslikdagi germanevtika, tilshunoslikdagi pragmatik yonalishdagi ilmiy izlanishlarning mohiyatini olib beruvchi uzvlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuhn T.S. The structure of scientific revolutions. – Chicago, 1962. – 213 p.
2. Яковец Ю.В. Формирование постиндустриальной парадигмы: истоки и перспективы // Вопросы философии. 1997. - № 1. - С. 3.

3. Kisiel T. Paradigms // Contemporary philosophy: A new survey: Vol.2. Philosophy of science / Ed. by Floistad G. – The Hague etc., 1982. – P. 87-110.
4. Qarang; Hojev A. Ozbek tili sinonimlarining izohi lugati. T., 1974 yil, 3-6- betlar; Вешл Л. М.Современная лингвистическая семантика. М., 1990 г., 151-154-стр. Новиков Л.А. Семантика русского языка.М., 1982 г., стр-222-242.
5. Toirova G. Leksik sinonimlarni orgatishdagi muammolar. Ozbek tili va adabiyoti.
6. Qarang: Rahimov U. Kosa, kosa tagida nim kosa. Andijon.1995 yil, 17-bet.
7. Qaranг: Новиков Л. А. Семантика русского языка. М., 1982, стр-79.
8. Қаранг: А.Nurmonov va boshqalar. Ozbek tilining nazariy grammatikasi (morfologiya) Т.,2001 yil. 8-10-betlar.
9. Rahimov U. Ozbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. ND. Samarqand, 1994. 64-bet.
10. Новиков Л.А. Семантика русского языка М., 1982г., стр-222-223.
11. Ozbek tilining izohli lufati. 1 том. М., 1981 yil, 475-bet